

## O'ZBEKISTONDAGI METRO TARIXI.

*Guliston davlat pedagogika  
Insituti 22/25 guruh talabasi  
Xudoyberdiyeva Maftuna*

**Annotatsiya:** *O'zbekistondagi ilk metro tarixi-Toshkent metropoliteni 1972-yilda qurila boshlanib 1977-yilda ochilgan va Markaziy Osiyodagi birinchi metro hisoblanadi.Dastlab chilonzor linyasi 9bekat bilan ishga tushgan.*

**Kalit so'zlar:***Toshkent metropoliteni,ilk metro,Markaziy Osiyo,metro tarixi, seysmik chidamlilik,me'moriy inshoot, metro bekatlari, halqa linyasi, milliy bezak,yer usti metro,Chilanzor linyasi.*

Bundan 44 yil ilgari,1977-yil 7-noyabrda boshlab Toshkent metrosida poyezdlar qat'iy jadval asosida harakatlanishni boshlagan.Toshkent metrosining qurilishi 1971-1972 yillarda boshlangan.1977-yilda birinchi yo'nalish-"Chilonzor"ishga tushirildi.Uzunligi 12,2 kilometrli,bekatlari soni 9ta bo'lgan mazkur liniyaning ochilishi o'sha davr shahar aholisi uchun katta yangilik edi.Malumotlarga ko'ra,o'tgan asrning 60-yillarida Toshkent aholisi 1,5million kishidan oshgan,shaharda transport muommosi paydo bo'lgandi. Toshkent metropoliten qurish g'oyasi dastlab 1957-yilda ilgai surildi. Biroq qurilish ishlarini boshlash uchun poytaxtning geologik,iqlimiy va texnik sharoitlari o'rganilishi kerak edi.1965-yilda Toshkent shahrida metropoliten qurilishi uchun zaruriy tadqiqotlar yakunlandi va 1966-yilda Qurulishi bo'yicha qaror qabul qilindi.Metropoliten qurilishi 1968-yilda boshlandi, bu davrda qurilish uchun zaruriy materiallar va uskunalar to'plandi.Metropolitenning qurilishi uchun maxsus komissiya tashkil etildi va mehnat kuchi,materiallar va qurilish uskunalari shahar tashqarisidan olib kelingan.qurilish ishlarini bajarish uchun 1000dan ortiq mehnat resurslari jalb qilingan.Metropolitenning ilk chizmalari va dizaynlari Shvetsiya va Germaniyadagi mutaxassislar tamonidan ishlab chiqildi.Toshkent metropoliteni 1977- yilda 6-noyabrda rasmiy ravishda ochildi.Bu shubhasiz, Toshkent shahrining tarixidagi muhim voqea edi, chunki bu transport tizimi shahar aholisining kundalik hayotini sezilarli darajada o'zgartirdi modernizatsiya jarayonini tezlashtirdi.Metropolitenning dastlabki lin-

yasi 13,3kilometr uzunlikka ega bo'lib,u 9ta stansiyadan iborat edi.Metropolitening Chilonzor linyasi 1977-yilda ochilgan bo'lib, hozirda bu linya uzunligi 23,7 km va 17 bekatdan iborat . Toshkent metropolitening ikkinchi linyasi - O'zbekistom yo'li 1984-yil 7-dekabrda ochilgan bo'lib uzunligi 4,8km bo'lgan 5ta bekat bo'lgan hozirda 14,3 km va 11ta bekatdan iborat 1987-yilda uzunligi 3,3km bo'lgan 2ta bekat foydalanisga topshirilgan.

1989-yil 6-noyabrda uzunligi 2,4km bo'lgan 2ta bekat iochilgn.1991-yil 30-aprelda uzunligi 3,8km bo'lgan 2ta bekat ishga tushirilgan.

Toshkent metropolitenining shahr markazini Yunusobod tumani bilan bog,laydigan 3- linyassi- Yunusobod yo'li Mustaqillik yillarida qurilgan bo'lib,ushbu liniyaning uzunligi 10,5

kkm va 8ta bekatdan iborat bo'lgan.2001-yil 26-oktabrda uzunligi 7,6 km bo'lgan 6ta bekat qurilgan.

2020-yil 29-avgustda uzunligi 2,9 km bo'lgan 2ta bekat foydalanishga topshirilgan.Toshkent metropolitening 4-linyasi - O'zbekiston mustaqilligining 30-yiligi yo'li yer ustidan o'tadi. Umumiy

uzunligi 52.1 km va bekatlari soni 35ta bo'lishi rejalashtirilgan bu linyaning birinchi bosqichi qurilishi 2017-yilda boshlandi va 2020-yil 30-avgustda ochildi. 2023-yil aprel oyida Toshkent yerusti halqa metro yo'lining II bosqichi doirasida qurib bitkazilgan yana 5ta bekatga yo'lovchi tashuvlari boshlandi Qo'yliq,Matonat, Qiyot,Tolariq, Xonobod va quruvchilar uchastkasida qurilish ishlari tugatilgan 5ta bekatning umumiy uzunligi qariyb 4km bo'lgan .Toshkent metropoliteni bekatlari loyhalashtirilgan davriga ko'ra turli xil uslubda qurilgan.Metrodagi Chilonzor,Novza bekatlari gumbazsimon,Mustaqillik maydoni yig'ma monolit konstruksiyali kolonna tipida,boshqa bekatning badiiy me'morchilik hamda haykaltaroshlik nuqtai nazaridan bezatilishi ramziy ravishda shu bekat nomini aks ettiradi. Ularda madaniy,monumental dekorativ va amaliy san'atning milliy an'analarini o'z aksini topgan.Toshkent metropoliteni 9balli zilzilaa bardosh beradi.Toshkent metropolitenining barcha yo'nalishlari qurulishida zamonaviy geologik,sanitariya, texnik xavfsizlik va yong'nga qarshi talablar inobatga olingan.Tunellar chuqurligi joyiga qarab 8-25 metrni tashkil qiladi.Metro poyezdlari dastlab sovet modelidagi vagonlardan iborat bo'lgan bo'lsa'keyinchalik yangilangan seriyalar,mustaqillikdan so'ng esa energiya

tejamkor,konditsionerili,xavfsizlik tizimlari o'rnatilgan zamonaviy oyezdlar xarit qilindi.Toshkent metropoliten-O'zbekiston transport tarixidagi muhim infrastruktura bo'lib,Markaziy osiyodagi ilk metro sifatida 1977-yilda ishga tushurilgan.Seysmik bardoshlilik asosida qurulgani,bekatlardagi Milliy me'moriy uslub va boy dizayni uni nafaqat transport,balki madaniy meros timsoliga ham aylantirgan.Metro yillar davomida rivojlanib, shahar infra tuzilmasining ajralmas qismiga aylangan.2019-yil mart oyida "O'zbekiston temir yo'llari" AJ kompaniyasi metropolitenni 2025- yilgacha rivojlantirish loyihasini taqdim etdi.

Mazkur loyihaga kora, 2025-yilga borib poytaxtda metro liniyalari uzunligi 157 kilometr ga yetkaziladi, 74 ta bekat, jumladan, 17-tasi otkazish stansiyasi paydo boladi. Yangi uchastkalarni qurish bo'yicha ishlarni 10 bosqichga bo'lish rejalashtirilgan. Har bir bosqichda 10 dan 20 kilometr gacha bo'lgan yo'llar quriladi.

Metro shahar transportining eng samarali tizimlaridan biri. U yo'llardagi tirbandlikni sezilarli kamaytiradi, odamlarni belgilangan manzilga tez va o'z vaqtida yetkazadi. Metroda qatnov arzon bo'lib, aholining barcha qatlami foydalana oladi. Bir vaqtning o'zida juda ko'p yo'lovchini tashish imkoniga ega, bu shahar iqtisodiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ekologik toza transport bo'lgani uchun havo ifloslanishini kamaytiradi. Tizim tartibli, xavfsiz va ishonchli. shaharda kunlik tez, arzon va ekologik transport vazifasini bajaradi.

**MANBALAR:**

- 1 Walker, J. Tashkent Metro: An Architectural Guide. Transport tarixchisi .
- 2.Usmanov, R. : . Rus tilidagi tarixiy tadqiqot.
- 3.Toshkent metrosi: me'moriy meros. Ilmiy-ommabop maqolalar to'plami